

## SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI

Nuritdinova Xurshida Norpo'latovna  
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7445514>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlikning muloqot muammolari aspektidagi mohiyat tavsifi keltirilgan bo'lib muloqotning psixologik funksiyalari, muloqotning mexanizmlari va vositalarini muloqotning funksiyalari, hamda ilmiy adabiyotlarning tahlilidan misollar keltirilgan

**Kalit so'zlar:** kompetentsiya, til, kasbiy, rivojlanish, ta'lif, kommunikativ, lingvistik, taraqqiyot, ma'naviyat, intellektual, ilm-fan, strukturaviy komponent. Shaxsning kommunikativ kompetentligini shakllantirishning amaliy vazifalarini yechish uchun kommunikativ kompetentlikni muloqotning verbal va noverbal vositalari sohasidagi malakalari va ko'nikmalarining yig'indisi sifatida o'rganish taklif qilinadi, va bu malaka va ko'nikmalar bir yaxlitlikning elementlari bo'lgan holda samarali muloqotni amalga oshirishga yordam beradi va ular malakalarning uchta bloki ko'rinishida berilishi mumkin:

- ijtimoiy-psixologik kommunikativ malakalar bloki;
- mantiqiy-kompozision kommunikativ malakalar bloki;
- nutqiy kommunikativ malakalar bloki.

Kommunikativ kompetentlik –OTM bitiruvchisining kasbiy kompetentligining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, u samarali muloqot qilish imkonini beradi va bag'rikeng (tolerant) xulq-atvorni amalga oshirishga, umuman guruhiy yakdillik/birlikka va kasbiy faoliyat sohasida ham shaxsiy o'z imkoniyat, qobiliyat va salohiyatlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Kommunikativ kompetentlik ikki aspektning yig'indisida ko'rindi: til tizimini bilishni va til vositalarini nutqiy o'zaro faoliyatning real vaziyatlarida mavjud me'yorlarga muvofiq foydalana olish malakasini nazarda tutadigan, va lisoniy aspektning o'zida shaxsning muloqotda kommunikativ xulq-atvor aspektida, bu esa jamiyatda, boshqa odamlar orasida qulay yashash uchun sharoitlar yaratadi, shaxslararo samarali o'zaro faoliyat, jamoada hamkorlik, o'zaro tushunganlik muhitida ishlashni ta'minlaydi.

Kommunikativ kompetentlik taklif qilinayotgan modelda aks ettirilgan, o'z kichik strukturalari sifatida: nazariy (shaxslararo o'zaro faoliyat sohasidagi bilimlar), amaliy (kommunikativ malakalar), va shaxsiy (shaxslararo o'zaro faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etishga yordam beradigan shaxsiy xossalari va sifatlar) kabi uch komponentdan iborat murakkab strukturaviy tashkil topganlikka ega hodisa sifatida o'rganiladi.

Shaxsning kasbiy shakllanishi masalalarini o'rganishda, ko'p tadqiqotchilar, odamlar bilan muloqot, o'zaro faoliyat kasbiy/professional faoliyatning bir qismi, va ba'zi kasblar uchun esa asosi ekanligi haqidagi faktni hisobga olgan holda, kommunikativ kompetentlikni mutaxassisning umumiyligini kasbiy kompetentligining bir tarkibiy qismi sifatida belgilashadi (V.I.Baydenko, V.N.Vvedenskiy, S.A.Drujilov, E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina, N.Yu.Pavlova, SYa.Romashina, V.V.Sokolova va boshq.). Bunda, aytish lozimki, ilmiy konsepsiyalarda kommunikativ kompetentlik mutaxassisning umumiyligini kasbiy kompetentligi strukturasida mustaqil bir tur sifatida, yoxud kompetentlikning, o'z navbatida, mutaxassisning umumiyligini tashkil etuvchi boshqa turlarining bir quyi strukturasi sifatida o'rganilishi mumkin.

Demak, kommunikativ kompetentlikning muloqotdagi umumiyligini ma'nodagi kompetentlik sifatida o'rganishda, har bir ilmiy soha o'z aspektini ajratib oladi va ishlab chiqadi, biroq mohiyatiga ko'ra esa, kommunikativ kompetentlikning o'zi emas, balki muloqotning turli tomonlari, jihatlari o'rganiladi. Hyech shubha yo'qliki, bu umuman olganda ilm-fan uchun ulkan ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Yemelyanov Yu.N. Teoriya formirovaniya i praktika kommunikativnoy kompetentnosti: avtoref. dis. ...d-ra psixol. nauk: 19.00.05. – L.: Izd-vo LGU, 1991.
2. Ivanov D.A., Mitrofanov K.G., Sokolova O.V. Kompetentnostniy podxod v obrazovanii. Problemi, ponyatiya, instrumentariy: ucheb.-metod. posobiye.
3. Xutorskoy A.V. Klyucheviye kompetensii i obrazovatelnye standarti // Eydos: internet-jurnal «Sentr distansionnogo obrazovaniya». – 2002. – 23 apr.
4. Sokolova V.V. Kultura rechi i kultura obshyeniya – M.: Prosveshyeniye, 1985.